

Yp

Tong

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 23-24 (67292-93)
2020-yil 29-iyun

yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

30-IYUN - O'ZBEKISTON YOSHLARI KUNI

Biz bugun huquqiy demokratik davlat qura-
yotgan ekanmiz, jurnalistikaning butun dunyoda
e'tirof etilgan, o'zgarmas talab va mezonlariga
amal qilishimiz zarur. Bu mezonlarning eng
asosiysi - xolislik va haqqoniylikdir. Binobarin,
matbuot maydoniga kirgan inson - u jurnalist
bo'ladimi, bloger bo'ladimi, bundan qat'i nazar
- ana shu qoidalarga amal qilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning «Matbuot va ommaviy
axborot vositalari xodimlari kuni» munosabati
bilan yo'llagan tabrigidan

YANGRAGAY OLAM ARO TINMAY NAVO!

*Quvnagay borliqqa dil, olamnamo yoshlar kuni,
Barcha shodlik va quvonch qalblarga jo yoshlar kuni.*

*Misli oppoq qush kabi uchmoqda oydin orzular,
Kafllaringiz to'ldirib aylang duo yoshlar kuni.*

*Boshimizda hilpirab kuylaydi baxt bayrog'imiz,
Ko'nglimiz gulzorida mehr-u vafo yoshlar kuni.*

*Yurtimiz yo'lboshchisin ardog'ida quvnaydi baxt,
Yangragay olam aro tinmay navo yoshlar kuni.*

*Sizga ishq undirdi dil bo'stonida Axtamquli,
Yo'llaringa yog'dirar so'nmas ziyo yoshlar kuni.*

AXTAMQULI



KASBIDAN BAXT TOPGAN AYOL



Agar shunday insonlar ro'yxati tuzilsa, aminmanki, daryodil ustoz, o'z kasbining fidoyisi bo'lgan pedagog Sharofat Toshmirzayevaning ismi-sharifi birinchilar qatorida qayd etiladi. Sharofat opani nafaqat poytaxtimizda, balki respublikamizda yaxshi tanishadi, hurmat qilishadi, ustozlarning ustoz, deya ardoqlashadi. Ayniqsa, «Yil o'qituvchisi» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida ona tili va adabiyot fanidan dars o'tgan g'oliblar muvaffaqiyatida Sharofat Toshmirzayevaning zukko o'quvchilari roli alohida ahamiyat kasb etadi. Men Sharofat ustozni qariyb 40 yildan buyon taniyman.

Fan olimpiadalar, «Bilimlar bellashuvi», respublika anjumanlari ko'rik-tanlovlarda opani goh hay'at a'zosi, goh g'olib o'quvchilar ustoz safida ko'rib, quvonaman. Filologiya fanlariga ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi (FFIDUM)ning oliy toifali o'qituvchisi, «Mehnat shuhrati» ordeni sohibasi Sharofat Toshmirzayeva 5-, 6-, 9-, 11-sinf adabiyot darsliklari taqrizchisi sifatida o'z fanining bilimdoni, ta'lim sohasining haqiqiy fidoyisi ekanini yana bir bor namoyon etdi.

Joriy yilning bahor oylarida «Onlayn-maktab» loyihasida faol ishtirok etib, 10–11-sinf o'quvchilariga dars o'tdi. U bilan birga loyihada qatnashgan shogirdi AFIDUM o'qituvchisi Sunbuloy Saidova ustoz haqida shunday iliq fikrlar bildiradi:

– Onlayn darslarda bizdan yordam va maslahatini ayamagan ustozim Sharofat Toshmirzayevaga tashakkur izhor qilaman. Qalbi ummon kabi cheksiz mehrga to'la bu insondan ilmdan tashqari ilm yo'lida ham bo'lishi kerakligini ham o'rgandim...

Haqiqatan, Sharofatxonning ko'zlarini ham so'zlaydi, go'yo. Xatti-harakatlari, ravon nutqi, o'quvchilarni ruhlantiruvchi samimiy so'zlari darslarni yanada jonlantiradi, o'quvchini ohanrabodek o'ziga tortadi. Buni Alouddin Sadriddinovning «Facebook» tarmog'ida qoldirgan izohidan ham bilish mumkin:

– Dars ko'chim so'zlar haqida bo'ldi. Ustoz mavzuni shunaqangi yoqimli ohang bilan, mehr bilan tushuntiradilarki, ularning o'quvchilariga beixtiyor havas qildim. Yana bir jihat, bu darslar o'qituvchilar uchun ham mahorat maktabi vazifasini o'tayapti. Sharofat opadek muallimlar safi kengayaversin.

Siz ham ijtimoiy tarmoqlar orqali ustozning darslarni kuzatib borayotgandirsiz, albatta?!

Sharofatxon notiq, u gapirganida yuragi bilan gapiradi. Bu fazilat unga ustozlari, jumladan, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Omonullo Madayev (joylari jannatda

bo'lsin)dan o'tgan. Shuningdek, gazeta va jurnallardagi maqolalari ham kuyunchaklik bilan yoziladi.

Hozir ta'til bo'lishiga qaramay ustoz (onlayn-repetitor, respublika o'qituvchilari uchun «Onlayn-malaka oshirish» hamda «Pisa» testlari o'qish savodxonligi) loyihasi bo'yicha darslar tayyorlamoqda. Tez orada televideniye orqali bu darslar ham namoyish etiladi. Biz bilimdan, kasbidan baxt topayotgan Sharofat Toshmirzayevaga «Hormang, ustoz, kasbingizga baraka!», deb qolamiz.

Mahmuda VALIYEVA



«TONG YULDUZI» BILAN XAYRLASHMAYMIZ



O'tgan yili «Yoshlar kuni» arafasida tuman hokimligi istirohat bog'ida bo'lib o'tgan tadbir biz yoshlarning ko'ngil kitobimiz sahifalarida o'chmas iz qoldirgan.

Mana, maktabni ham tugatib oldik. O'n bir yil qadrdon bo'lgan go'sha, qadrdon sinfdoshlar bilan xayrlashish qanchalar og'irligini endi his qilayapmiz.

Bugun barcha sinfdoshlarimiz maktabga yig'ildik. Betakror damlarimiz o'tgan sinfxonaga, sevimli maskanimiz bo'lgan kutubxonaga kirdik. Sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»ning o'quvchilik davrimizdagi oxirgi iyun oyi sonlarini qo'lma-qo'l o'qidik. Sahifalar

yuragimizga ko'chdi.

Nahotki, bolaligimizdan qadrdon bo'lgan gazeta bilan ham xayrlashayotganday allanima bo'g'zimni kuydirib o'tdi. Bugungi kunimiz ham tarixga aylanayapti-ya...

Bizni matbuotga oshno qilgan, har bir ijodiy inshoimizni o'qib ruhlantirgan muallima Aziza Boymurodovaga mehrim bo'lakcha.

Bir kuni ustozning yoniga borib so'radim: – Ustoz, nahotki, «Tong yulduzi» bilan

xayrlashsak?»

– O'zing xayrlashishni xohlamasang bo'ldi. Gazeta sen bilan! Men adashmasam, to'rtinchi sinfligimdan 1980-yildan beri, qariyb qirq yildan beri «Tong yulduzi» bilan birgaman. Mehrim balandligidan sizlarga ilinshdan charchamayman. Hanuz xayrlashgim yo'q, har bir sahifasida bolaligimni ko'raman. Respublikamizning turli maktablarida tahsil olayotgan yoshlar, imkoniyatlari, yutuqlari bilan tanishib, sizlarni tanishtirib zavq olaman.

Yoshlar uchun imkoniyatlar eshigi ochilgan diyorda o'qib-o'rganish, jamiyatga munosib bo'lishda katta hikmat bor. Siz kabi ma'rifati

yoshlarga havas qilmagan odam yo'q. Ilohim, ilm, ma'rifat, so'zga oshnolik, imyon-u saxovat hamisha hamrohingiz bo'lsin, – dedilar Aziza opa.


Ustoz aytgan har bir tilak zamiridagi beqiyos mehr, muhabbat yuraklarimizga ko'chdi.

Matbuot, adabiyot hamisha biz bilan birga bo'lishiga ustozlarga munosib bo'lishga ahdlashdik.

Xudo xohlasa, oliygohlarda o'qib, ustozlar ishonchini oqlashga, sizlar kabi ma'naviy targ'ibotchi bo'lishga bel bog'laymiz.

**Zarnigor QO'CHQOROVA,
Samarqand viloyati,
Kattaqo'rg'on tumanidagi
28-maktabi bitiruvchisi**

Bir kuni darsda...



Sinfimizda yaxshi an'ana bor edi. Kimningdir tug'ilgan kuni bo'lsa, uni o'z-gacha tarzda kutib olardik.

Bir kuni yaqin dugonamning tug'ilgan kunini nishonlamoqchi bo'ldik. Dugonam sinfga kirib kelishi bilan hammamiz qarsak chalib, «Tabriklaymiz!», deya kutib oldik.

U sinfxonada xursand bo'lib turardi. Bugun musiqadan kiradigan yangi ustozimizning birinchi darslari edi. Dugonam musiqa ustozimizning sinfga kirib kelayotganlarini ko'rib, partasiga o'tirib oldi. Biz esa hamon «Tabriklaymiz!», deya qarsak chalib turardik.

Ustozimiz, «Birinchi darsim bo'lganligi uchun meni tabriklashyapti», deb o'yladilar shekilli, «Rahmat, rahmat», deya joylariga o'tirdilar. Biz kulgidan bazo'r o'zimizni tiydik, ustozimizni birinchi darsdanoq xafa qilib qo'ymaylik, degan maqsadda ularni tabriklagandek qilib ko'rsatdik. Har yili shu dugonamning tug'ilgan kunida o'sha voqeani eslab, kulib yuramiz.

Komila OTABOYEVA,
XTV tasarrufidagi TFIDU maktabi o'quvchisi

Insonning umrida shunday vaziyatlar bo'ladiki, uning hayoti boshqa tarafga o'zgarib ketadi. Bundan bir necha yil oldin mening hayotimda ham shunday quvonchli voqea yuz bergan. Bolaligimdan turli mavzularda maqola va she'rlar yoza boshladim.

Yozganlarimni faqatgina tuman gazetalariga berib borardim. «Tong yulduzi» gazetasi esa har sonini sevib o'qib borardim, unda e'lon qilinayotgan tengdoshlarimning ijod namunalarini ko'rib, havas qilardim.



«Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan bir nechta tanlovlar g'olibi

«TONG YULDUZI»M – JON YULDUZIM!

Mening ham yozganlarim gazetada chop etilishini xohlardim. Kunlardan bir kun Qoraqalpog'iston Respublikasidagi bolalar uchun atalgan «Jetkinshek» gazetasi tahririyatiga bordim. U yerdagi ustozlarim «Tong yulduzi» gazetasida «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» nomli tanlov e'lon qilinganligini va unda qatnashib ko'rishimni maslahat berishdi. Oldinida menda kuchli hayajon va hadik bo'ldi. Tanlovda g'olib bo'la olamanmi? Oyimning, «Muhimi ishtiroking, g'olib bo'lishing emas», degan gaplari menga kuch bag'ishladi. Ijod namunalarimni yubordim. Avgust oyi edi. Oyim ishdan uyga xursand bo'lib kirib keldi. «Qizim, zo'r yangilik bor», dedi meni bag'riga bosib, «Sen g'olib bo'libsan... Toshkentga borasan». Shu paytdagi quvonchimni ta'riflab berishga til ojizlik qiladi. Har safar poytaxtga kelganimda, albatta, «Tong yulduzi» gazetasining tahririyatiga ham tashrif buyuraman. Chunki muvaffaqiyatlarimning zamirida aynan shu gazeta bilan bog'liq. «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» oliy o'rin, «Kim ko'p kitob o'qiydi?», «Onajonim tabiat»da 3-o'rinlarni egalladim. Eng quvonchlisi, aynan shu vaqtdan boshlab bir necha Respublika miqyosida o'tkazilgan tanlovlarda qatnashib, sovrindorlar qatoridan joy oldim. Ustozlarim va do'stlarim Zulfiyachi qiz, deya nom berishdi menga. Yuzdan ortiq tanlovlarning g'olibi bo'lgan bo'lsam, to'rt yuzdan ortiq gazeta va jurnallarda she'r va maqolalarim chop etilib kelmoqda. Bolalar uchun atalgan «Aqtunin qiziman», «Ha g'ubelek, g'ubelek» va «Juzik» nomli kitoblarim chop etildi. 2017-yili Respublikamizdagi barcha qizlar havas qiladigan Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini Yurtboshimizning qo'llaridan olishga sazovor bo'ldim va O'zbekiston Davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetiga Davlat granti asosida o'qishga qabul qilindim. Men shu ishonch hosil qildimki, qo'lga kiritgan yutuqlarimning zamirida «Tong yulduzi»dagi barcha ustozlarning o'rni bor. Bu yerdagi ustozlarimga mingdan ming rahmat aytaman. Rahmat senga, «Tong yulduzi»m – jon yulduzim!

Ayjamal KARAMATDINOVA,
O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti talabasi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi



kechirim so'radik. Ustoz eshikni ochib darsni davom ettirdi. Darsimiz tugagach, u kishi bizga tanbeh berdi va «Bolalar qiziquvchan bo'ladi-da», deb o'zlari ham kulib qo'ydi.

Qachon vertolyotning ovozi

Yodimga bir voqea keldi. U vaqtda biz 3-sinfda o'qir edik. Ustozimiz Saida opa Maraimova o'qish darsini endi boshlamoqchi bo'lganlarida, birdaniga maktabimiz uzra vertolyot uchib o'tdi. Hammamiz vertolyotni tomosha qilish uchun yo'lakdagi deraza tomon yurgurdik. Ustozimiz ortimizdan «hay-hay»laganicha qolaverdi. Biz darsga «tomosha» tugagach sinfga qaytib kelsak, eshik qulf, hammamiz hayron bo'ldik. Ustozimning ichkarida ekanligini bilib, eshikni taqillatib, undan



eshitsam, shu voqea yodimga tushaveradi.

Sarvinoz NAMOZOVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 42-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Assalomu alaykum, men sizlarga 5-sinfda o'qib yurgan kezarimda sodir bo'lgan bir voqeani so'zlab berishga qaror qildim. Bir kuni bizga ona tili fanidan «Bizning hovlimiz» mavzusida matn tuzish topshiriq qilib berildi. Hamma matn tuzdi. Ustozim daftarlarni yig'ib oldi. Ertasi kuni tekshirilgan daftarlarni tarqatishni boshladi. Odatda ustozimiz kimdir ko'proq xato qilgan bo'lsa, o'sha o'quvchining o'ziga inshosini o'qitardi. Shu payt bir sinfdoshimizni chaqirtirdi va undan yozgan inshosini o'qishini so'radi. U inshosini o'qiy boshladi: «Bizning hovlimizda pomidor, baqlajon va golubsilar pishadi»... Hamma kulib yubordi. Keyin ustozimiz unga, «Hammaning uyida bulg'or qalampiri pishsa, sizlarnikida tayyor bulg'ori do'lmasi pishsa, zo'ruku. Ertaga hammamiz ko'rgan boramiz», dedi. Shunda sinfdoshim qilgan xatosini tushunib, uyilib ketdi. Bizning esa kulaverib ichagimiz uzilay degan. Bu voqeaning yomon tomoni, o'sha sinfdoshimiz ustozimizni yoqtirmay qolgan edi.

Mohiniso NURQULOVA,
Jizzax viloyati, Arnasoy tumanidagi 13-umumta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi



DUNYODAGI ENG BAXTLI QIZMAN

Maqolamiz qahramoni sirdaryolik Sitora Muhammadiyeva ayni damda o'zini mamlakatimizning eng baxtli qizlari safida ekanligidan mamnun. Chunki u ham bu yil Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi bo'ldi.

– Men an'anaviy xonandalik bo'yicha ushbu mukofotga loyiq topildim va bundan boshim ko'kka yetdi. Boyovut tumanidagi 4-umumta'lim maktabida tahsil olishim bilan birga, Guliston shahridagi 1-Bolalar musiqa va san'at maktabida an'anaviy xonandalik bo'yicha tahsil oldim. Ustozlarim Nazokat Abdusalomova va Abdurahim Sultonovdan maqom sirlarini chuqur o'rgandim. Bu yo'nalishda kuylash biron murakkabroq, chunki avj pardaga chiqish, so'zlarni bo'lmasdan, yaxlit qilib tinglovchiga yetkaza olish kerak. Ustozlarim bu borada menga yaqin ko'makchi bo'lishdi. Unga bo'lgan havasim tobora ortib, asta-sekin mumtoz qo'shiqlarimizdan «Aylagach», «Mustahzod», «Yakka bu Farg'onada», «Tasadduq» singari qo'shiqlarni

kuylay boshladim. Avvalo, maktab sahnasida, keyin esa tadbirlarda, sayllarda ishtirok etib, barchaning nazariga tushdim. Mana, bugun ustozlarimning, onamning mehnati o'z natijasini berdi. Ko'ksimda yarqirab turgan bu nishon birgina meni emas, balki ustozlarimning bergan ta'limi uchun ham berilgan mukofot deb bilaman. Kelgusida Dilnura Qodirjonova, Munojot Yo'ldiyeva, Gulbahor Erqulova singari ustoz san'atkorlarimiz kabi o'zbek maqomi san'atini butun dunyoga tanitmoqchiman.

Sitoraning mana shu tilaklari ijobat bo'lishini biz ham chin dildan istaymiz. Zero, o'qib-izlanish, albatta, o'z samarasini beradi.

OZODA

UMIDSIZLIKDA HAM UMID QILDIM

Bolaligimda bir-biridan qiziqarli ertaklarni tinglab, keyin ularni boshqalarga ham aytib berishni yoqtirar edim.

2017-yilda To'raqo'rg'on tumanida barpo etilgan Is'hoqxon Ibrat nomidagi maktab-internati o'quvchisi bo'ldim. Hammasi aynan shu nuqtadan boshlandi. Maktabimizga Prezidentimizning tashrifi, chet ellik tengdoshlar bilan muloqot,

yulduzimga aylandi, desam, mubolag'a bo'lmaydi. O'tgan yili oliy o'quv yurtiga imtihon topshirdim, omadim chopmadi. Harakat qildim. Umidsizlikda ham umid qildim. Sa'y-harakatlarim zoye ketmadi, deya qo'rqmay ayta olaman. Sababi,

zamin» radiosi boshlovchisi, bundan tashqari, telegram tarmog'idagi «Namanganliklar» rasmiy kanali muxbiri sifatida faoliyat yuritayapman. Albatta, muvaffaqiyatlarim zamirida Rustam Mirvohid, Muyassar Boqixonova, Umida Qo'sho-

ijodiy erkinlik bularning barchasi bizga ilhom bag'ishladi. Ustozlar bergan ta'lim va tarbiya orqali men jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etgan soha vakiliga, ya'ni jurnalistikaga qiziqqa boshladim. 2018-yili ilk bor «Tong yulduzi» gazetasi-ning tahririyatiga bordim. U yerda meni iliq qarshi olishdi. Shundan so'ng, maqolalarim boshqa gazeta va



jurnallarda ham chop etila boshladi. Ba'zan o'ylab qolaman, agarda menga tahririyat xodimlari, yozganlarim jurnalistika talablariga javob bermaydi, deganida nima bo'lar edi? Yo'q, aksincha, ular yosh ijodkorni qo'llab-quvvatladi. Va mening hayotimdagi yo'lchi

bugun o'z ishim, jamoam, meni qadrdovchi do'stlarim, doimo qo'llab turuvchi ko'plab ustozlarim bor.

Hozirda Namangan «Yosh jurnalistlar» maktabi qoshida tashkil etilgan Media-markazning «Asosiy xabarlar» dasturi bosh kordinatori, «Oltin

qova, Azizbek Abduvaliyev kabi jonkuyar ustozlarimning mehnati mujassam.

**Mashhura
XO'JAAHMADXONOVA,
Namangan viloyati,
To'raqo'rg'on tumani**

So'z insonni tarbiyalash, uni kamolotga yetkazish jarayoni-da oqilona foydalanish mumkin bo'lgan eng yaxshi vosita. O'zbek milliy adabiyotida didaktik ruhda yaratilgan asarlar rivoji ham fikrimizning yorqin dalilidir.

IKKI ISTE'DOD



So'z orqali inson ruhiga qanot, ijodiga fayz bag'ishlash mumkin. Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, bizni «hayvondin judo aylagan guhari sharif» bilan bizning ruhimiz sayqal topadi, ijodimiz kamolotga erishadi. So'z va uning inson ruhiyatiga bo'lgan ta'sirini yoritishda Yevropa xalqlari hayotida afsonaga aylangan bir voqeani keltirishni o'rinni deb bildik. Wolfgang Amadeus Motsart musiqa dunyosiga juda erta qadam qo'ygan, tug'ma iste'dod sohibi edi. Hali o'spirinlik paytidayoq Yevropa mamlakatlari bo'ylab o'tkazilgan sayyor konsertlari uni favqulodda mashhur insonga aylantirgan. Aksar konsert so'ngida Motsart odamlar tomonidan qurshab olinar, hamma uning mo'jizakor qo'llarini ushlab ko'rishga intilardi. Frankfurt- Maynda o'tkazilgan navbatdagi konsertdan so'ng ham olomon uni har tomondan qurshab oldi. Shu onda Motsartning qarshisida taxminan u bilan tengdosh bir bola paydo bo'ldi.

– Sen buni qanday uddalaysan, qanday chalasan? – bolaning ovoizidan, hayrat to'la nigohidan undagi hayajonni ilg'ash qiyin emas edi. – Shunchaki, o'tirasan va chalaverasan, – javob qaytardi bo'lajak kompozitor.

– Men bilan hech qachon unday bo'lmag-an, chalolmayman, – davom etdi muxlis.

– Unda sen she'r yoz, bu ham yaxshi ish, – shoshilinch javob berdi Motsart. Bu uchrashuvdan so'ng yosh loganning hayotida tub burilish yuz berdi va endi u har kuni she'r mashq qiladigan bo'ldi. Yillar o'tib, ushbu logan Yevropa adabiyotida tub burilish davrini boshlab bergan shaxs – logan Gyotega aylandi. Motsartning qarshisida unga cheksiz havas va hayrat bilan tikilib turgan o'spirin logan Gyote edi. Uzoq yillik musiqa mashg'ulotlarida omadsizlikka uchragan bu bola tengdoshi bilan uchrashganda, juda tushkun kayfiyatda edi. Motsartning so'zlari unda o'zi ham payqamagan iste'dodining ko'z ochishiga sabab bo'ldi.

Bu voqeadan shunday xulosa chiqarish mumkin, bizga ahamiyatsizdek tuyulgan birgina so'zimiz yoki maslahatimiz kimningdir hayotida tub burilish yasashi, uning kamolotiga yoki zavoliga xizmat qilishi mumkin.

**Donoxon YO'LDOSHEVA,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi
34-umumta'lim maktabi o'qituvchisi**

QALDIRG'UHLAR PARVOZI BALAND

Yoshlar – Vatan tayanchi. Ularning aql-zakovatli, barkamol inson bo'lib shakllanishida harbiy sohaning o'рни beqiyos.

Bolalikda askar bo'lishni orzu qilmagan yigit bo'lmasa kerak. Mening ham qalbimda ushbu sohada xizmat qilish zavqi o'quvchilik yillarimda uyg'ongan edi. Intilganga tole yor, deganlaridek maqsad sari intilib, talaba bo'lish baxtiga erishdim. Harbiy jurnalist bo'lish, el koriga yarash, sidqidildan xizmat qilish orzum edi. Oldimizga qo'yilgan reja va maqsadlarimizni sarhisob qilar ekanman, yil davomida erishgan yutuqlarimiz aytishga arzigulik ekan. Ruxsora, Kamola, Yunus, Farangiz kabi talaba yoshlarimiz o'qish va ish faoliyatini birgalikda olib borib, yurtimiz ravnaqiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqda va samarali mehnat qilishmoqda. Ularning dolzarb, muammoli maqolalari gazeta sahifalaridan o'rin olgan.

Harbiy jurnalistika sohasining ilk qaldirg'ochlari sifatida yuksaklarga parvoz qilishga intilmoqda. O'z sohasini oqlashga intilayotgan yoshlarning orzulari beqiyos. Yil davomida bir qancha talabalarning o'z sohasi bo'yicha kasb mahoratlarini oshirishda o'z ustida ijodiy izlanishlari fikrimizning yorqin dalilidir. Bugungi yoshlarimiz barcha sohada ilg'or, yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarib, O'zbekiston dovruq'ini dunyoga tanitmoqda. Mard, jasur harbiy jurnalistlar shaxdam qadamlar bilan olg'a intilib, albatta, xalqimiz va Yurtboshimiz ishonchini oqlaydi.

Umida SULAYMONOVA,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyar universiteti Harbiy jurnalistika yo'nalishi talabasi

Yurtimizda birinchi marta «Yoshlar kuni» nishonlangani yodingizdami? Xalqimizning bayramlari ko'p, lekin yoshlarga bag'ishlangan alohida bayram yo'qligi barchamizga ma'lum edi.

YOSHLAR KUNI QANDAY NISHONLANADI?

2017-yil 30-iyun sanasi «Yoshlar kuni» deb e'lon qilingani butun O'zbekiston yoshlari uchun quvonchli xushxabar bo'ldi. Mana, bu yil jonajon tashkilotimizning tashkil topganiga 3 yil to'ldi. Tashkilotning ozmi-ko'pmi samarali faoliyati bilan har bir yoshning qalbiga kirib borgani maqsadlarimizning qanchadir foiziga erishganimizni ko'rsatadi.

Bag'riga bolaligimiz jo bo'lgan mehribon Ittifoqim, biz sening safigda birlashdik, sen orqali do'stlar orttirdik, turli xil tadbirlarda ishtirok etdik, barcha viloyatlarda mehmon bo'lishlik nasib qildi, tajriba orttirdik, yoshimizga yarasha mahoratimiz yuqorilashdi, barchasi sen tufayli. Bugun «Yoshlar kuni» mamlakatdagi barcha yoshlar uchun chinakam bayramga aylandi. Xo'sh, bu yil yoshlar bayramini qanday nishonlashni o'ylab qo'ydingizmi? Bugungi pandemiya sharoitida ham biz buni uddalay olamiz, ushbu bayramni qanday nishonlashni bilamiz. Online-tanlovlar, aksiyalar, televizion shoular, radio, gazeta orqali tabrik va muloqotlar uyushtirish orqali yoshlarni bayram tadbirlariga jalb qilishimiz, faol yoshlarni moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirishimiz mumkin.

Albatta, bu juda katta, hattoki bajarish imkonsizdek tuyulgan tadbirlar bo'lishi mumkin. Ammo har bir yosh uchun imkoniyatdir, barchamizning qo'limizdan keladi.

Xumora MUHAMMADJONOVA,
Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumanidagi
39-umumta'lim maktabi o'quvchisi

BIZLARGA TOMOSHABIN BO'LIH YARASHMAYDI

Bugungi sinovli kunlarda el koriga yarash, yurtga kelgan balo – koronavirusni jilovlash borasidagi ishlarga hissa qo'shish har bir yoshning burchiga aylandi. Biz yoshlarga bunday vaziyatda bir chetda tomoshabin bo'lib turish yarashmaydi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qashqadaryo viloyati Kengashi, «Kamalak» bolalar tashkiloti jamoasi, xususan, Sardorlar Kengashi va ko'ngillilar bir kuch, bir jamoa bo'lib yoshlar manfaati uchun xizmat qilmoqda. Agar bugun biz oddiy tomoshabin bo'lib tursak, kelajak avlod vakillari kim bilan faxrlanadi?

Maqsadlarga erishish uchun balandparvoz gaplar kifoya qilmaydi, ularni ro'yo qilish uchun rejali ishlar kerak.

Men Qashqadaryo viloyatida maktab o'quvchilari orasidan saylangan sardor sifatida buni tengdoshlarimdan ko'ra ko'proq anglashim kerak, vohalik o'quvchi-yoshlar bilan karantin davomida ham faol bo'lgan holda «Orzular ro'yobida

ko'mak – «Kamalak», «Baxtli bolalik», «Vatanim uchun men», «Bolalar ta'limni tanlaydi» kabi qator loyihalar, shuningdek, onlayn-uchrashuvlarga start berdik, sportchilar, san'atkorlar va tajribali rahbarlarni jalb etgan holda masofadan birlashdik.

Birgina, «Orzular ro'yobida ko'mak – «Kamalak» loyihasi doirasida 39 nafar imkoniyat cheklangan iqtidorli bolalarni «kashf» etdik. Sevinch Narziyevaning qo'llari ishlamaydi, biroq u oyoqlarida betakror suratlar chizadi, Lochinbek G'aybullayev uyda tahsil oladi va haykallar yasaydi, Sayyora Qilicheva esa hayot zavqini kuy-navo bilan his eta olmasa-da, nimalarni his etayotganini so'zlarda aks ettira olmasa ham chizgan rasmlari shukronalikka balqib turadi. Bunday ro'yxatni yana uzoq davom ettirsam, opa-singil kashtachilar-u pazandalikdan boxabar Nargizalar bilan boyiydi, bunday tengdoshlarim cheklangan imkoniyatni chekkaga surgan noyob qobiliyatlardir.

Masofadan turib ilm o'rganish qachonlardir biz zabt eta olmaydigan cho'qqiga o'xshardi. Hozir esa istak va xohishning kuchi ustunlik qilib, onlayn bilim olyapmiz. Bilimlarni mustahkamlash uchun esa Sardorlar Kengashi jamoasi «Online-Olimpiada»ni tashkil etib, respublikamizdagi 1963 nafar bolalarni qamrab oldi. Samarqandlik, farg'onalik, navoiylik, sirdaryolik o'quvchilar ham faol ishtiroki bilan raqobatchilik qilishgani, karantinni shunday foydali ishlar bilan o'tkazganidan dalolat.

Albatta, bu kunlar ham o'tadi. Xalqimizga xos oliyanoblik, bir-birini qo'llab-quvvatlash kabi fazilatlar yoshlar uchun ibrat bo'lib, yurt taqdiriga daxldorlik bilan yashashga o'rgatadi.

Marjona JO'RAQULOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qarshi shahridagi 4-umumta'lim
maktabi o'quvchisi, viloyat
«Ittifoq» Sardori



Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

HAPPY YOUTH DAY




You have the ability to dream and you have the ability to make these fantasies a reality... May you are honored with more grounded will and higher energies... Wishing you Happy Youth Day.

PRESENT PERFECT OR PAST SIMPLE

Fill in the blank with the present perfect or past simple.

- When _____ (he/meet) her?
- How long _____ (your brother/be) ill?
- My dad _____ (go) home early yesterday.
- When _____ (your sister/ graduate) from university.
- What time _____ (you/have) breakfast?
- _____ (he/ever/play) golf?
- I _____ (not/ read) a book last week.
- You _____ (want) a laptop for a year.
- We _____ (not/go) to the party last week.
- How long _____ (you/live) in Samarkand?



Makhbuba TEMIROVA,
the teacher of school № 43 in Gijduvan district, Bukhara region

Happy Youth Day

The present we can see with our own eyes. But the future, we unquestionably have no desire for. As the youth commend their day today, we have a look at how our tomorrow will be. The youths are without a doubt the pioneers of tomorrow. Let us praise them Happy youth day.

WORD SEARCH

T	F	R	L	K	I	T	E	G	N	U	F
N	T	I	P	Y	B	T	R	I	X	F	S
V	A	S	U	N	N	Y	B	S	T	Q	I
P	I	K	W	K	U	A	F	V	E	T	C
E	B	T	R	I	C	W	O	K	N	P	E
M	S	S	O	L	M	I	C	H	I	S	C
A	K	H	P	A	S	M	Y	L	R	D	R
R	C	I	O	D	I	V	I	N	G	N	E
V	E	R	S	R	M	A	K	N	L	O	A
A	S	T	W	M	T	R	P	E	G	Y	M
B	I	K	I	N	I	S	D	H	C	A	P
C	G	S	M	O	W	E	W	A	R	M	K

Words: cabin, diving, bikini, ice cream, kite, pail, shorts, sunny, swim, swimming, T-shirt, warm.




Zilola SIROJIDDINOVA,
the teacher of № 41, in Angren city, Tashkent region

QUOTES ABOUT YOUTH



Youth is happy because it has the capacity to see beauty. Anyone who keeps the ability to see beauty never grows old.

Franz KAFKA




Anyone who stops learning is old, whether at 20 or 80. Anyone who keeps learning stays young.

Henry FORD

A youth, when at home, should

be filial and, abroad, respectful to his elders. He should be earnest and truthful. He should overflow in love to all and cultivate the friendship of the good. When he has time and opportunity, after the performance of these things, he should employ them in polite studies.

CONFUCIUS



If in my youth I had realized that the sustaining splendour of with which I was in love would one day flood back into my heart, there to ignite a flame that would torture me without end, how gladly would I have put out the light in my eyes.

MICHELANGELO

When I look back, I am so impressed again with the life-giving power of literature. If I were a young person today, trying to gain a sense of myself in the world, I would do that again by reading, just as I did when I was young.



Maya ANGELOU



Youth cannot know how age thinks and feels. But old men are guilty if they forget what it was to be young.

J. K. ROWLING



DOVE AND THE BEE

(Story)

On the banks of a river, there is a tree where a swarm of bees set up their beehive. They remain busy the entire day buzzing on flowers and collecting honey. One fine day, a bee feels thirsty and goes to the river to drink some water. As the bee tries to drink, a wave of the current sweeps it away. The bee starts drowning.



Fortunately, a beautiful dove, who has been watching from a distance, rushes to help the poor bee. She plucks a big leaf from a tree and flies towards the bee. The dove places the leaf near the bee. The bee mounts on the leaf and dries its wings. In some time, the bee finds the strength to fly away to safety.

A couple of weeks later, the dove is caught in a dangerous situation. As she is sitting on the branch of a tree, an archer targets at her. The dove looks for an escape but sees a large hawk hovering around her.

That's when her good deed returns to her. The bee comes to her rescue by stinging the archer hard. By then the archer releases the arrow, which misses the dove and hits the hawk, instead. The dove flies away to safety.

WORD ORDER

Put the word in right order.

1. the radio/ listens/ every day/ Sardor

2. she/ football/ much/ don't like

3. he/ watch/ last week/ lost

4. passed/ Nozima/ easily/ the examination

5. enjoyed/very much/ we/ the party

6. explained//carefully/ my plan

7. crossed/ the street/ carefully/ Odil

8. did you/ the news/ on television/ watch?

9. slowly/ my little brother/ the book/ reads

10. every day/ do/ the same thing/ we



Muhammadsharif FAYZULLAYEV

Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

SCHOOLS AROUND THE WORLD


The primary school is Phumachangtang, Tibet, is thought to be the highest school in the world. It is also the closest of its kind to the sky. At 5,373 metres above sea level, it is 200 metres higher than the base camp of Mount Qomolangma, the world's highest mountain, known as Mount Everest in the West.



The King's School in Canterbury, England is the world's oldest school. Founded in 597 AD, earning the title of being the world's oldest school comes with no surprise. The school is however, up-to-date with quality

equipment and supplies and provides modern education.

A school in the Philippines is made entirely of recycled pop bottles. It took about 9,000 bottles and dozens of volunteers to build the structure. Each bottle was filled with sand, water and straw to keep them sturdy. Then, a cement-like substance was used to hold the bottles in place as they were stacked on top of each other to create walls.



Back in 2014, there was an elementary school in Turin, Italy that only had one teacher and one student - giving it the reputation of being the smallest school in the world. Officials have decided to keep it open as long as there is at least one pupil at the school.

The children in Holland start school on their fourth birthday so there's always someone new in class. While this does mean that older students get more time to settle in and make friends, it does at least mean that students should be at a similar development level by the time their first day at school rolls around.

The largest school in the world in terms of number of students is the City Montessori School in Lucknow, India. There are more than 32,000 students attending the school on a daily basis. It has over 1,000 classrooms, 3,700 computers and goes through thousands of pounds worth of stationery and books each year.



Internet sources

KIMSASIZ UY

Biroz vaqt o'tgach, osmonni qora bulutlar qoplay boshladi.



Bu uydan ba'zan qo'rqinchli ovozlari eshitilardi. Mana shunday yomg'irli kunlarda esa uy yanada dahshatli ko'rinarotgandi.



– Tezroq! Yomg'ir kuchayib ketdi!

– Nima qilamiz!

– Balki kirib ko'ramiz!



– Ehtiyot bo'linglar!

– Tinchlaning!



– Bolalar, bu shunchaki shamol!


QARS...

– Qirolicha Eliza to'g'ri aytdi ekan.

– Shunday! Endi bu uydan qo'rqmasangiz ham bo'ladi!

– Menimcha, arvohtar bu yerdan ko'chib ketishgan!


– Rostdanmi?



– Mana buni uy desa bo'ladi!

– Ularning uylari juda ham qulay ekan-a?

BUUUM...



– Balki, avval bu yerni biroz tartibga keltiramiz!

Tashqarida yomg'ir yog'ishda davom etardi, qahramonlarimiz esa ishga kirishib ketdilar!

– Uy ishlarini bunday qiziqarli bo'lishi xayolimiga ham kelmagandi.

– Do'stlar davrasida har bir ish shunday yoqimli bo'ladi.



– Bu nima edi?

– Arvohtar!!!



– Derazalar endi har xil tovushlar chiqarmaydi.

– Menimcha, bu uy biz uchun juda ham mos.



Barcha ishlar yakuniga yetgach...

– Menda g'oya bor. Balki bu uyni qarorgohimizga aylantiramiz.

– Ajoyib fikr! Bu uy yozgi ta'til bayramlarini o'tkazishimiz uchun ajoyib boshpana.

– Urre-e-e! Har doim o'z qarorgohimiz bo'lishini orzu qilgandim.



Ertasi kuni

– Eliza, sen ularga haqiqiy quvonch hadya etding.

– Endi bayram kechalari ham ko'p bo'lsa kerak-a?

– Men ham shu haqda o'ylayotgandim, Olaf.

– O'yijon, yangi qarorgohimiz sizga yoqdimi?

– Endi ularning xavfsiz qarorgohlari borligi qanday yaxshi-ya!



– Ajoyib. U holda bezash ishlarini boshlasak ham bo'ladi.

– Hali bezaklar ham bo'ladimi?!!

TAMOM
6

BUZOQCHAMNI BOQISHGA DALAGA KETGANIMDA HAM YONIMDA KITOB BO'LARDI

Dalaga borsam ham suv, non esimdan chiqsa-da, kitob hamisha yonimda bo'lardi.

Esimda, sinfdoshim Sherali bilan mol boqqani yaylovga ketardik. Uning katta mollari, meni bor yo'g'i ikkita buzoqcham bo'lardi.

Birga mol boqib, sevimli yozuvchimiz, ustozim Xudoyberdi To'xtaboyevning «Quyonglar saltanati» romanini o'qib tugatgandik. Hatto mutolaadan so'ng, quyonglarga bo'lgan qiziqishimiz ham ortgan edi. Kitob o'qisam, ovozimni balandlab o'qirdim. Sinfdoshim tinglar, menga afzallik tomoni – buzoqlarim uzoqlashsa, u qaytarib kelardi. Bolaligim ana shunday qiziqarli voqealarga, ajoyib damlarga boy o'tgan.

Maktabda ham faol o'quvchilardan biri bo'ldim. Saylovda qatnashib, maktab «Mehr saxovat» yo'nalishi sardori bo'ldim. Barcha yutuqlarga erishishim yo'lida ilk tamal toshini qo'ygan yetakchimiz Xurshida opa bizni «Kamalak» bilimdonlari» tanloviga tayyorlashni boshladi. Buni qarangi, omad kelsa qo'sh kelib, o'sha yili tanlovning tuman, viloyat bosqichida g'olib bo'ldik. Viloyat bosqichi o'tayotgan paytda mening ishtirokim yoqdi shekilli, tanlov yakunida «Yorqinjon Hayitboyev faoligi uchun viloyat sardorlari safidan joy oladi», deb o'lon qilishdi.

Ochig'i, maktab sardorligidan birdaniga viloyat sardori bo'lish meni esankiratib qo'ygandi. 2017-yildan buyon viloyat «Yoshlar ittifoqi» sardorligida faoliyat yuritib kelaman. 2018-yili Farg'ona viloyatida o'tkazilgan Respublika sardorlar saylovida g'olib bo'ldim.

Maktabda faqat a'lo baholarga o'qishga harakat qildim. Ijodan ham to'xtamadim. «Kamalak yulduzlari», «Mening ijod mahsulim», «Men muallifman», «Men eshitgan ertaklar», «Yosh kitobxon» kabi yigirmaga yaqin tanlov, festivallarning Respublika bosqichida g'olib bo'ldim. Joriy yil esa sardorlik faoliyatimda eng yorqin yutuqqa erishdim. Mamlakat miqyosidagi eng faol sardorlar o'rtasida o'tkazilgan «Yil sardori» tanlovida mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdim.

Yuqoridagi yutuqlarim, qolaversa, suhbat jarayonidagi fikrlarim e'tiborga olinib, Vazirlar Mahkamasining 914-sonli qarori asosida O'zbekiston yoshlar ittifoqining 14 nafar faollari safida joriy yil universitetga imtihonsiz, Davlat granti asosida qabul qilinish bo'yicha imtiyoz sohibiga aylandim.

Ochig'i, imtiyoz olganimni eshitganimda, ko'chamiz boshidan suv olib kelgani ketgandim. Qarasam, uzoqdan ayam kelyapti. «Nargiza opang seni so'rayapti», dedilar. Nargiza opa yetti yildan buyon mening eng qadrli bo'lgan ustozim, viloyat «Kamalak» bolalar tashkiloti raisimiz hisoblanadi. Telefonni ko'tardim. «Tabriklayman, imtiyozni siz olibsiz», dedilar. Shu qadar quvondimki, uyimizda to'y bo'lib ketdi.

Imtiyoz men uchun katta mas'uliyat deganidir. Endi oliygohda ham faol talabalardan biri bo'lishga harakat qilaman. Eng asosiysi, sevimli nashrim «Tong yulduzi»dan hech qachon ayrilmayman. «Tong yulduzi» mening hamisha do'stim bo'lib qoladi. 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan yurtimizdagi barcha yoshlarni muborakbod etaman.

Yorqinjon HAYITBOYEV,
Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi
15-umumta'lim maktabi bitiruvchisi,
O'zbekiston yoshlar ittifoqi imtiyozi g'olibi

Har gal ommaviy axborot vositalarida «imkoniyati cheklangan» degan jumlagi ko'zim tushsa, beixtiyor ko'z oldimga Mohirabonuni keltiraman.

HAYOTGA MUHABBAT – ENG OLIY NE'MAT

Tabiatan o'ta tirishqoq, muloyim va yaxshi suhbatdosh Mohirabonu Hasanova poytaxtimizdagi 48-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi. U ingliz, nemis va rus tillarini qunt bilan o'rganadi va bu borada yutuqlari bisyor. Bundan tashqari, musiqa, rang-tasvir san'ati va badiiy adabiyotning ixlosmandi, uni kamdan-kam kitobsiz uchratasiz. Mohirabonu oilada ham saranjom qiz. To'quvchilik, munchoq tikish kabi hunarmandchilik namunalari yoqtiradi. Uyda onasining yordamchisi.



Umuman, men har sohada Mohirabonuni tengdoshlariga o'rnak qilib ko'rsata olaman. Qani, ayting-chi, siz vaqtingizni qanday sarflayapsiz? O'qituvchi faqatgina bilim bermaydi, payti kelganda, u ham kimdandir yoki nimadandir saboq oladi, o'yga toladi. Men uchun Mohirabonu inson imkoniyatlari cheksizligining jonli timsoli. Undagi ishtiyoq va hayotga bo'lgan ulkan muhabbatni ko'rganimda, menda ham yashash ishtiyoqi jo'sh uradi.

Muhayyo ZIYOTOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy
tumanidagi 48-umumta'lim
maktabining ingliz tili fani
o'qituvchisi

«MOHIR QO'LLAR» ONLAYN TARZDA!

Siz uydan chiqmay turib birorta hunar o'rganmoqchimisiz? Aytaylik, popop gulli yostiqlar-u tillarang ip yordamida zardo'ppilar tikishni yoki munchoqlardan mohirona sochto'g'nog'ich-u bilaguzuklar yasashni istaysizmi?

Samarqand shahar «Barkamol avlod» Bolalar ijodiyot maktabining o'quvchilari yuqorida keltirilgan barcha buyumlarni maktabning «Mohir qo'llar» to'garagi rahbari Zarbibi Mahmudova tashkil qilayotgan onlayn-mashg'ulotlar orqali puxta o'rganishmoqda.

Nargiza opa Qobilova rahbarlik qilayotgan ushbu dargohga hunar o'rganish ishtiyoqidagi ko'plab o'quvchilar turli nomdagi to'garaklarga a'zo bo'lganlar. O'quvchilarning ta'tildagi bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish barobarida hunarli ham bo'lishlarini o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan ushbu maskanning tinib-tinchimas ustozlari mana shunday ishlarining chinakam ustasi hisoblanadilar. Zarbibi opaning faol o'quvchilari mashg'ulotlarni puxta o'zlashtirib bormoqdalar.

Bundan ota-onalari ham mamnun, albatta.

– Qizimning telefon orqali hunar o'rganishini ko'rib, o'zimizning ham havasim keladi. Gohida yonida o'tirib, ustozining qanchalik tirishqoqlik bilan tushuntirayotganini tomosha qilaman.

Qizimning mana shunday jonkuyar o'qituvchilari ko'pligidan mamnunman, – deydi Sevinch Karimovanning oyisi Muharram Munisova.

Sevinchning onasi singari ustozlarga minnatdorlik nomalarini bitayotgan ota-onalarning soni behisob.

Dildora Kamolova esa ustoz Lola Haydarovadan munchoqlardan turli buyumlar yasab, uyida onlayn-ko'rgazma tashkil qilibdi. Uning bu tirishqoqligiga tahsin aytmay ilojimiz yo'q. Ta'tilning ilk kunlaridanoq Samarqand shahar BABM tomonidan amalga oshirilayotgan mana shunday tashabbus hali yurtimiz bo'ylab qanot yozishi, shubhasiz, albatta. Axir yuqoridagi qizlar singari ilm-u hunarga chanqoq yoshlar mamlakatimizda ko'plab topiladi.

So'zimiz so'ngida esa sizning ta'tilingiz mazmunli o'tishi uchun qanday rejalar tuzganingiz bizni qiziqitirishini unutmang, deb qolamiz. Maktublaringizni kutamiz, aziz o'quvchilar!

Ozoda TURSUNBOYEVA

FAQAT QIZLAR O'QISIN!

KITOB O'QISHNI TASHLAMANG



Ichki olamingizni hech narsa kitobchalik benazir boyita olmaydi. Ruhiyatigizni hech narsa kitobchalik o'qish-o'rganish, mehnatchalik muvozanatga, to'g'ri yo'lga sola olmaydi. Intellektual rivojlanishda kitob asosiy o'rinni tutishi haqida juda ko'p eshitgansiz, albatta. Chunki kishining o'zini o'zi tarbiyalashida kitob ham bilim manbai, ham o'zingizni ko'rish, taqqoslash, taqlid qilish, muhozara yuritish, bahslashishda ma'lum darajada ko'zgu vazifasini o'taydi.

Dugonalarigizni ayrimlari bir kechada bir romanni «tushurib» kelganlari haqida maqtanib gapirishadi. Buning nimasi yaxshi? Nima o'rgani-shdi? Nima bilishdi? Shu kitobning qahramoni bo'lgan «yigit»+«qiz» mu-

habbat yo'lining «boshlanishi» va «tugashini» kuzatishdi, xolos.

Hayotda odam yolg'iz o'zi yashay olmaydi-ku! Odamlar muhit, tabiat bilan munosabatda bo'ladi. Ana shu munosabatlarda qiynalgan, to'g'ri yo'l izlagan paytda suygan kitobimizga, ruhiyatimizga ruhi yaqin bo'lgan qahramonlar kechinmasiga murojaat qilamiz. Ba'zan ulardan quvvat olib, hozir bizga og'ir bo'lsa ham, ular tutgan yo'lni tutamiz. Negaki, biamiz, shu qahramon boshida qiyinchilik ko'rgan bo'lsa ham, uni iroda bilan yengib o'tgach, yuragi ancha halovat topadi. Demak, biz undan iroda, sabot, ma'lum darajada kechirimli bo'lishni,

chekinishni o'rgandik, evaziga halovat topdik, ya'ni ruhiy muvozanatni to'g'riladik. Haligi, kitobdan faqat «qiz»+«yigit»ning muhabbat chizig'ini kuzatgan dugonangiz shu chiziqning nima bilan tugaganini bildi, xolos. Ertalab qahramonlarning «topishgani» yoki «ajralishgani» haqida sizga xabar berdi. U hatto qahramonlari «oqlash» yoki

«qoralash»ga ham ojiz. Chunki ularni boshqalar bilan munosabatda, ya'ni insonning ichki va tashqi murakkabligi jarayonida ko'rmadi-da. Ularning u yoki bu harakati zaminida nima yotganini bilmaydi.

Kitobni bunday o'qigan qizlar – hayotni, atrofnii, odamlarni kuzata bilmaydigan, mushohada qila bilmaydigan, hayotda

ham mustaqil fikriga, irodaga, mulohazakorlikka ega bo'lmagan insonga aylanib qolishlari oson. Ayrim shunday dugonalarigiz haqida «Yengil uchib yurgan kapalakka o'xshaydi», deyishganini ham eshitgandirsiz. Bu sizning yoshingizda eshitish nojoiz bo'lgan sifat. Lekin shunday uchib kelib, hayot ustidan uchib ketadiganlar toifasi ham bor-da. O'qiydigan kitoblaringizda ular obrazi ham juda ko'p.

Kitob bizga ulkan ta'sir ko'rsatib, juda katta, chuqur hayotiy tajriba berishini qayd etar ekan, akademik D. S. Lixachev quyidagilarni ta'kidlaydi: «U kishini ziyoli qiladi, unga go'zallik tuyg'usinigina emas, hayotni, uning butun murakkabliklarini tushuntirish kabi qimmatli tuyg'uni rivojlantiradi, boshqa davrlar va boshqa xalqlarni tushunishda yo'l boshchilik qiladi, sizga kishilarning qalbini ochib beradi. Bir so'z bilan aytganda, sizni donishmand qiladi».

Shuning uchun kitob o'qishni tashlamang. Yoshlikda, hozir undan olgan barcha yaxshi fazilatlarini bir umr qalbingizda saqlab qoling.

Xotin-qizlar ensiklopediyasidan

Nodira ismli yaqin dugonam bor edi. O'zi juda aqlli, quvnoq, qo'li ham, ko'ngli ham ochiq qiz. Lekin men biror yangi kiyim, biror buyum sotib olsam, uning kayfiyati bir zumda o'zgaradi. Qovog'ini uyub, gaplashgisi ham kelmay qoladi. Sababini so'rasam, tobi yo'qligini bahona qilib tezda ketib qoladi. Dugonamning bu fe'lini sira tushuna olmayman. Balki bu holatning sababini siz tushuntirib berarsiz. Hurmat bilan Ziyoda

Ziyoda qizim, maktubingizni o'qib, bolaligimda sodir bo'lgan bir voqea yodimga tushdi. Dadam tug'ilgan kunimga chiroyli tuflicha sovg'a qilgandilar. Uni oyog'imga kiyishga ko'zim qiymay, xonamdagi javonga yasatib qo'ydim. Shu kuni ammam men tengi Iroda ismli qizi bilan mehmonga kelishdi. Irodani qo'lidan tutganacha xonamga boshladim. Yangi tuflichamni unga maqtanib, yana joyiga qo'ydim.

Kun bo'yi Iroda bilan miriqib o'ynadik. Iroda ketgandan keyin zerika boshladim. Shunda yangi tuflicha yodimga tushib, uni ammam sovg'a qilgan ko'ylak bilan kiyib ko'rish niyatida xonamga oshiqdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, yangi tuflichamning bog'ichlari qirqilgan, yuzasidagi kapalaksimon gullari, turli ranglarda tovlanuvchi toshlari uzilib

BUVIJONIM O'GITLARI

Buvijonim, Sizga maktub yozishga ancha ikkilandim, yozdim, chizdim, yirtdim...

Yana qayta yozdim. Xullas, Sizdan maslahat so'rashga jazm etdim.

yotardi. Bu holni ko'rib, bor ovozim bilan yig'lab yubordim. Xonaga yugurib kirgan buvijonim: «Xafa bo'lma, ona qizim, ertaga sen-

ga yangisini olib beraman», deya meni yupatdilar. Lekin tuflichamni kim shu ahvolga solganini so'rasam, hech kim aytmadi. Oradan yillar o'tib, Iroda bu ishni u qilganini o'zi kula-kula gapirib berdi...

Havas bilan yashash biz insonlarga xos xususiyat. Baxtli, omadli insonlarga havas ko'zi bilan boqamiz. Biror yutuqqa, mavqega, muvaffaqiyatga erishgan insonlarning yo'llarini so'raymiz. Muhtasham uy, chiroyli libos yoki buyumlarni ko'rib, ko'zimiz quvnaidi, bizga ham nasib etsin, deya niyat qilamiz. Demak, havas insonlarni yaxshilarga ergashtiruvchi, ezgulikka intiltiruvchi, qalblarni nurlantiruvchi tuyg'u ekan. Lekin xalqimizda «Havas qil, ammo uni ulg'aytirma, hasadga aylanadi», degan naql ham bor. Shoyad, dugonangiz ham umri qisqa kiyim-kechaklar-u o'tkinchilarning gap-so'zlari kabi mayda narsalardan baland bo'lishni o'rgansa, xalqimizning «Havas qil-sang, yetarsan murodga», degan hikmatiga amal qilib, o'z oldiga katta maqsadlar qo'yib yashasa.

Feruz JALILOVA



O'ZBEKISTON YOSHLARI

Bilim egallash uchun,
Beradi barcha kuchin.
Doimo gapirar chin,
O'zbekiston yoshlari.

O'g'lonlari Alpomish,
Qizlari Barchinoyimish.
Buyuk ular qilgan ish,
O'zbekiston yoshlari.

Kitobxonlik va sport,
Musiqqa, adabiyot.
Baridan qo'yg'an rekord,
O'zbekiston yoshlari.

Vatanga sadoqatli,
Mashaqqatga toqatli.
Har ishda shijoatli,
O'zbekiston yoshlari.

Madina AZIZOVA,
Abdulla Qodiriy nomidagi ijod
maktabi o'quvchisi



KITOB NUR- ZIYOGA KON

Bizga bag'rin ochadi,
Bor mehrini sochadi,
A'lochi bo'linglar, deb,
Quchog'ini ochadi.

Kitob nur-ziyoga kon,
Bizni aylar bilimdon.
O'qigan bolalarga,
U doimo mehribon.

Rasulbek PO'LATOV,
Buxoro viloyati, Shofirkon
tumanidagi 4-umumta'lim
maktabi o'quvchisi



QUYOSH

Osmonda porla, Quyosh,
So'nmagin to bor jahon.
Nur ulashgin olamga,
Gullarga to'lsin har yon.

Har tong tog'lar ortidan,
Bizga kulib boqasan.
Dilga quvonch ulashib,
Barchamizga yoqasan.

Osmondan ham olisda,
Manziling uzoq burcha.
Ko'ngillarga yaqinsan,
Ko'kdagi go'zal g'uncha.

Zilola JABBOROVA,
poytaxtimizning Mirobod
tumanidagi 175-umumta'lim
maktabi o'quvchisi



OLMA VA UZUM

Bir kun olma savatdan,
Yumalab joy olibdi.
Uni terib bog'bon ham,
Rosa charchab qolibdi.

Mevani qo'yib chetga,
Yostiq qildi bir toshni.
Uxlab qoldi bir zumda,
Chimirgancha u qoshni.

Bog'dagi sho'x mevalar,
Tilga kirdi shu zamon.
Uzumlar tok shoxidan,
Tushdilar olma tomon.

Tundek qora bir charos,
Rizamat bo'lmas uvul.
Xullas, barcha uzumlar,
Olmaga berdi savol.



Muslimaxon YOQUBOVA,
Farg'ona viloyati, Furqat tumanidagi 14-umumta'lim maktabi bitiruvchisi

«Bizni ham olib ketgin,
Turaverib xo'p toldik.
Quyoshvoyning taftidan,
Mayiz ham bo'lib qoldik».

Bu holni ko'rib olma,
Joy berib, mayli, dedi.
Bu iltifot o'rnidan,
Uzumlar xursand edi.

Shu chog' bog'bon uyg'onib,
Negadir shodon kuldi.
Savatga boqib nogoh,
Termilib hayron bo'ldi.

Uzum qaydan kelgani,
Unga noma'lum edi.
«Olmadan so'ng sizlarni,
Tushda terganman», dedi.



SIZDAN O'RNAK OLAMIZ

Yaxshi ishlar qilasiz,
Bizni dildan suyasiz,
Kerak bo'lgan chog'ida,
Joningizni berasiz.

O'g'lim, qizim, gulim, deb,
Mening nurli yo'lim, deb,
To'g'ri yo'ldan yurgin, deb,
Nasihatlar qilasiz.

Sizni yaxshi ko'ramiz,
Yoningizda bo'lamiz,
Bizlar ham sizdan mudom,
O'rnak olib yuramiz.

Manija SA'DULLAYEVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tuma-
nidagi 28-umumta'lim maktabi o'quvchisi

JANNAT ONALAR OYOG'I OSTIDADIR

Men O'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» asarini sevib o'qiyman va bu asarni qayta-qayta o'qishdan zerikmayman. Bu asar o'zbek adabiyoti durdonalaridan biri, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Adib bu asari bilan nafaqat o'z onasiga, balki barcha o'zbek onalariga muhtasham haykal qo'yib ketdi. «Dunyoning ishlari» asarini qissa emas, doston deyishni istardim, degan edi ulug' yozuvchi Said Ahmad. Darhaqiqat, asar onalar, ularning ezgu fazilatlarini haqida bitilgan buyuk dostonidir. Asarda menga eng yoqqani «Qarz» hikoyasi bo'ldi. Chunki onaxon qo'shni bolakaylarni xursand qilish uchun nafaqa pullarini ham ayamaydi. Nilufarga atlas ko'ylak va tufli, ukalariga velosiped hamda kiyim-kechak sovg'a qiladi. Buni hatto o'g'liga ham aytmaydi. O'g'li hazillashib, nafaqangizni nima qilyapsiz, oyi, deganda, qarzlirim bor, deb qo'ya qoladi. Xalqimizda, «O'ng qo'ling berganini chap qo'ling bilmasin», degan naql

bor. Bu maqolning mag'zini endi chaqqandekman...

Eng qizig'i, asarda adib o'zi boshidan kechirgan va guvohi bo'lgan voqea-hodisalarni qalamga olgan. Masalan, u kiyadigan kiyimlar katta akasidan kichigiga, kichigidan o'ziga o'tguncha eskitib bo'lishini yozadi. Ust-bosh olish uchun bisotlaridagi bitta-yu bitta echkini sotmoqchi bo'lishadi. Otasi betob bo'lganligi uchun ona-bola bozorga borib, dalol topishadi. Dalol onaning sodda, rahmdilligidan foydalanib echkini arzon-garovga oladi va boshqa kishiga qimmatga sotib yuboradi. Ona bundan qattiq xafa bo'ladi.

O'tkir Hoshimovning onasi eng go'zal fazilatlar egasi edi. Hech kimga qo'pol so'z aytmas, hammaning ko'nglini birdek olar edi. Farzandi uchun jonini berishga tayyor edi. Bir yili qahraton qishda tomog'i bo'g'ilib, ishtimalab yotgan bolasini ko'tarib, Hoji buvinikiga boradi. Yo'lda kovushining ichi qorga to'lgan onaizor bod kasaliga yo'liqadi. Shundan beri yozuvchi har yili Kavkazga

dam olishga borganda, onasiga gilampaypoq olib keladi. Ona esa jundan to'qilgan issiq va yumshoqqina paypoqni qo'shnilarga ko'rsatar, mehribon o'g'li bilan faxrlanardi.

Men bu asarni qayta-qayta o'qir ekanman, har doim, har qanday sharoitda ham onalarni hurmat qilish, ularni yaxshi ko'rish kerakligini angladim.



Gulsanam SHUKUROVA,
Samarqand viloyati,
Oqdaryo tumanidagi
30-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

**Agar Farhodning Shirini bo'lsa,
Majnunlarning Laylosi,
Nasib o'lmish menga gulshan aro
gullarning - Ra'nosi.**

RA'NO MENI MAHLIYO ETDI

Dunyoda shunday adiblar borki, ularning asarlarini qayta-qayta mutolaa qilgung, undan zavqlang kelaveradi. Bunday mutolaa horg'in tanangga orom, tushkun kayfiyatingga ko'tarinkilik, g'amgin ruhiyatingga te'tiklik bag'ishlaydi. O'zbek



romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriy ana shunday ijodkorlar sirasidan. Uning sehrli nutqi, nazokatli tasviri, haroratli iboralari, tengsiz go'zal obrazlari bizni o'ziga maftun qilib, qalbimizga tuganmas hayajon olib kiradi. Uning shunday asarlaridan biri «Mehrobdan chayon» bo'lib, undagi Ra'no obrazi orqali o'zbek qizlariga xos bo'lgan jihatlar, fazilatlar qalamga olinadi.

Asarni «Mehrobdan chayon» deb atash, ziyoli ulamolarni qahramon qilib tanlashdan murod muqaddas dargoh – sajdagohdan chiqqan, munofiq, qallob, e'tiqodsiz kishilarga ishoradir. Romanda Anvar bilan Ra'noning pok sevgi sarguzashtlari, qalb nazokati mohirona tasvirlangan. Solih mahdumning yumoristik obrazi adabiyotshunoslikda yozuvchining jiddiy yutug'i, kashfiyoti sifatida e'tirof etilgan.

Men u romanni o'qish jarayonida Ra'noni yoqtirib qoldim (ya'ni, muxlisiga aylandim). Ra'no iboli, hayoli qiz, u mehribonligi, bolajonligi, oqko'ngilligi bilan meni o'ziga mahliyo etdi. Bir kuni Ra'noning otasi Solih mahdum oilasiga bozordan go'sht va piyoz olib bordi. Bors, Ra'no ukalari bilan loy-o'yin o'ynayotgan ekan. Bu esa otasiga sira yoqmadi va biroz koyigandek bo'ldi. Ra'no uyalib onasining oldiga yugurib borib, kichik ukasini qo'liga oldi. U otasidan uyalganidan yerga kirib ketgudek bo'ldi. Ra'no juda ham chiroyli edi. Uning kipriklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi. Yuzlari uzoqdan qaraganda qizil olmaga o'xshab ko'rinar edi. Sochlari quyuq, sanoqsiz kokillari bor edi. Tasavvur qilib ko'rgan bo'lsangiz kerak, menimcha. U nafaqat Qo'qonning, balki butun Farg'onaning go'zallaridan edi. Menimcha, hozirgi yoshlarga bunday asarlar juda ham zarur, deb o'ylayman. Men sizga ushbu asarni o'qib chiqishni tavsiya qilaman.

Odinabonu SAIDNAZAROVA,
poytaxtimizning Olmazor tumanidagi
249-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Pilla qabul qilish punkti. Bu korxonada faqat bir mavsum ish qizg'in bo'ladi – pilla topshirish vaqtida. Hozir esa mavsum emas. Boshliq ikki-uch kunda bir kelib-ketadi, tun-u kun qorovuldan boshqa hech kim bo'lmaydi.

Bugun qorovul har doimgidek ishini korxonada hovlisini aylanib, nazorat qilib chiqishdan boshladi. Uning yagona hamrohi – iti. Iti juda yuvosh, mushuk og'zidagini olib ketsa ham qilt etmaydi.

Shu vaqt korxonada darvozasi oldiga qora avtomobil kelib to'xtadi.

Undan ikki kishi tushdi. Birining egnida kostyum-shim, oyog'idagi tufli xuddi hozirgina sotib olingandek yaltirar edi. Ikkinchisi esa biroz odmiroq kiyimda bo'lsa ham gerdaygannamo edi.

Qorovul mashinani ko'riboq ularga peshvoz chiqdi. Egnidagi kamzuli eskirganidan rangi o'chib ketgan, oyog'iga esa orqasi bosilgan eski tufli ildirib olgan soddagina chol mehmonlarni ochiq chehra bilan qarshi oldi:

– Assalomu alaykum, kelinglar, marhamat.

Haligi «yangi tufli» egasi salomga bosh iring'ab qo'ydi, xolos.

So'ngra, atrofga ko'zini xiyol qisib bepisand nazar tashladi va dedi:

– Bu yerda odam-podam bormi o'zi?

– Ha, albatta, bor.

– Qani, hech kim ko'rinmayapti-ku? – dedi

ikkinchisi qo'li bilan suyanish uchun ustunning changini qoqarkan.

– Ha, bu yerda odam bor, nahot ko'rmayotgan bo'lsangiz, mana, men turibman-ku, – dedi qorovul ajablanib.

– Bu nima deganingiz, ustimizdan kulyapsizmi? Chaqiring, kim bo'lsa tezda, – dedi qo'lidagi soatiga qarab qo'yib. Qorovulning yuziga istehzoli kulgi yugurdi.

– Mavsum tugadi, endi ular kunora keladilar,

ertaga kelsangiz, shu yerda bo'lishadi.

Shu payt qorovulning haligi yuvosh iti uzoqdan turib akillay ketdi. Go'yo it ham ularning gapini tushungan, egasini xafa qilishganini sezgandek. Birdan ikkala hashamdorni qo'rquv bosdi.

– Bu it siznikimi, tishlamaydimi... ish-qilib?! – dedi kostyumli mehmon.

– Yo'g'-a, odamga indamaydi.

Ammo bir zumda it ularning oldini to'sib, iring'ishlagancha sakray boshladi. «Kutilmagan mehmon»larning rangi oqarib ketdi.

– Qarang itingizga, nega yolg'on gapirasiz, tashlanyapti-ku...

Qorovul kinoyali kulib dedi:


– Aytdim-ku, odamga indamaydi, deb...

Kamola ABDUNABIYEVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi
15-umumta'lim maktabi bitiruvchisi

ODAMGA INDAMAYDI

(Hajviy hikoya)





Bugun sizlarga bundan bir necha yuz yillar ilgari, hali fotoapparat ixtiro qilinmagan zamondagi ajayib sehrli fonuslar haqida so'zlab bermoqchiman. Bu ertak emas, balki bugun sizga yaxshi tanish bo'lgan fotoapparatning yaratilish tarixidir.


SEHR LI FONUS

orqa devorda teskari tasvir paydo bo'lgan. Odamlar ana shu tasvirni qog'ozga ko'chirib olishgan. Izlanishlar natijasida esa orqa

devorga yorug'likka ta'sirchan plastinka joylashtirilgan. 1826-yilda Jozef Nyeps ilk bor misdan tayyorlangan plastinkada fotosurat olishga erishgan.

Insonlar bu ixtiroga unchalik qiziqishmagan. Negaki, suratni kameraga sakkiz soat solib qo'yish kerak bo'lgan. Yillar o'tib, Jozef Nyepsning vatandoshi Lui Dager

1839-yilda bu ixtiro ustida ishlab, birinchi marta inson yuzini aniq tasvirini suratga tushirdi. U mis plastinkasidan emas, kumush tuzlari bilan qoplangan plas-



tinkadan foydalangan. Natijada, suratga olish uchun 20 daqiqa vaqt yetarli bo'lgan. Uning nomini

«Sehrli fonus» deb atagan.

1895-yilda tomoshabinlar tomoniga, ya'ni ekrandan zal tomon parovoz yura boshlaydi, buni ko'rgan tomoshabinlar vahimaga tushib, baqira boshlaydilar. Axir ular ilgari kino ko'rishmagan edi. Aka-uka Ogyust va Lui Lyumyerlar birinchi kinofilm muallifi va kinoapparat ixtirochisi bo'lishgan. Hali-hanuz mana shu g'oya kino sanoatining asosi hisoblanadi. Kinokamera harakatlanayotgan plyonkaga tasvirni tushiradi va kinoapparat uni xuddi shunday tezlikda, ya'ni bir soniyada 24 kadrnini ko'rsatadi.

Aziz bo'lajak ixtirochilar-u

Bilasizmi, dastlab insonlar nurning xususiyatlari va oddiy optika qonunlaridan o'yin-kulgi sifatida foydalanishgan. Uch ming yil ilgari esa eng qadimiy «optik» san'at soyalar teatri paydo bo'lgan. Fotoapparatning paydo bo'lishiga esa kamera-obskura, ya'ni rasm chizish uchun mo'ljallangan maxsus moslama bilan o'tkazilgan tajriba sabab bo'lgan. Old qismida kichik teshigi bo'lgan maxsus qutiga yorug'lik tushishi natijasida

qiziquvchan bolalar! Sizni yana qanday ma'lumotlar qiziqtiradi? Bu haqda bizga yozib yuboring!

Internet manbalari asosida ZUHRA tayyorladi

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

1			*	*	*	*	*	*	
2						*	*	*	
3						*	*	*	
4							*	*	
5								*	
6								*	
7								*	
8								*	
9								*	
10									
11			3/6	2/3	7/6	1/2	8/8	5/3	

Eniga: 1. Juft raqam. 2. Poytaxt shahar. 3. Salomatlikni saqlash sohalari majmui. 4. Binolarning kirish joylarida o'rnatiladigan, tashrif buyuruvchilarni bittadan o'tkazish uchun mo'ljallangan to'siq. 5. Ko'rilgan, his etilgan hodisa haqida xotirada qolgan iz. 6. Termik pech, sovutgich kabilardagi chegaralangan hajmlarda haroratni doim bir xilda saqlab turuvchi apparat. 7. Xalq xo'jaligining yuk va yo'lovchilar tashish bilan shug'ullanuvchi tarmog'i. 8. Ip gazlama qatlamlariga sintetik smola shimdirish va bir yuz ellik haroratda katta bosimda preslash yo'li bilan tayyorlanadigan plastik material. 9. Rivojlanish, yuksalishning yana bir atamasi. 10. Nashriyot muassasasining qo'lyozmalarni nashrga tayyorlash va bosib chiqarish bo'limi.

Topshiriq: shaklning o'n birinchi qatoridagi raqamlar juftini (birinchisi so'z, ikkinchisi harfni anglatadi) yuqoridagi javoblardagi harflar bilan almashtirish bilan topshiriqni hal eting. Bunda ustoz adib Abdulla Qodiriy ijodiga mansub hajviy asar qahramoni ayon bo'ladi.

Tuzuvchi:
Foziljon ORIPOV

MUZAYYANA ONLAYN-TANLOV G'OLIBI

Muzayyana Abdumo'minova
ibratli, eng faol
o'quvchilardan.



Uning qiziqmagan sohasi yo'q. U ustoz va sinfdoshlarining eng yaqin ko'makchisi. Bu o'quvchimizda sinfdoshlarini jamoa bo'lib faollikda ishlashga chorlash qobiliyati kuchli.



Yozgi ta'tilga chiqqan Muzayyana ustozlarining onlayn to'garaklaridagi mashg'ulotlarini qiziqish bilan bajarib bormoqda. Bo'sh vaqtda turli aplikatsiyalar yasash jon-u dili. Uning qo'l mehnati ishlari maktab bo'yicha onlayn tarzda o'tkazilgan «ljodkor o'quvchilar» tanlovida faxrli birinchi o'rinni egalladi. Biz Muzayyanaga yutuqlari bardavom bo'lishini, bundan-da katta muvaffaqiyatlarga erishishini tilab qolamiz.

Feruz NIZOMIDDINOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq
tumanidagi 26-umumta'lim
maktabining boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Samarali ta'lim tizimini takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi. Pedagoglarimiz faoliyat doirasidan qat'iy nazar, informatika bo'yicha keng ko'lamdagi bilimlarga, zamonaviy hisoblash texnikasi, informatsion aloqa va kommunikatsiya tizimlari va ulardan foydalanish borasida yetarli malakalarga ega bo'lishlari lozim.

MAVZUNING QANCHA FOIZI YODINGIZDA SAQLANADI?

Bundan 2500 yil muqaddam Konfutsiy: «Eshitganimni yodimdan chiqaraman, ko'rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam, tushunib yetaman», degan ekan. Ta'lim jarayonida informatsion hamda pedagogik texnologiyalar qo'llaganda, o'quvchi eshitish, ko'rish, ko'rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi. «Biron mavzu ustida qanday ishlaganda uning qancha foizi yodda saqlanadi?» degan savolga javob topish maqsadida o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, mavzu bayoni;

- faqat eshitganda uning 10-20 foizi
- eshitsa va mavzuga oid ko'rgazmali materiallar ko'rsa, 30-50 foizi
- eshitsa, mavzu bo'yicha fikr yuritsa, amaliy mashg'ulot bajarsa, 60-90 foizi yodda qolar ekan.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalari o'quvchilarni rag'batlantiradi va ularning qiziqishini oshiradi, kelajakdagi faoliyatga tayyorlaydi, o'rganish va o'qitishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi. O'qituvchilarga o'z fanlari bo'yicha o'qitishning yangi usullarini joriy qilish g'oyalarini ro'yobga chiqarishga imkon beradi.

Ma'rifat RASHIDOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 51-umumta'lim maktabining
matematika va informatika fani o'qituvchisi

Pazanda qizga!

ISSIQ KUNDA YAXNA TAOM



Kerakli masalliq: 2 litr qatiq, 2 dona tuxum, yarim choyqoshiq tuz, 3 oshqoshiq guruch, 3-4 bog' ko'katlar va 1 bog' otquloq, 1 litr suv.

Tayyorlanishi: sirli idishga tuxum bilan guruch, tuz solib aralashiramiz. Ustiga qatiq va suv solib, olovga qo'yamiz. Guruch biroz pishgach, unga ko'katlarni yirik qilib to'g'rab solamiz va yaxshilab aralashiramiz. Ko'katlar solinganidan so'ng 5 daqiqadan keyin tagini o'chiring. Massani qo'l uzmasdan kavlab turish kerak, chunki qumoq bo'lib qolishi mumkin. Uni sovutilgan holda iste'mol qiling.



RANGLAR JILOSI



Sharshara

Farzona KOMILJONOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq
tumanidagi 40-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

BU = QIZIQ

Chumolilar uyini isitish uchun o'zlarini avval quyoshda isitib, so'ng uylariga kirarekanlar. Uni qarangi, uyining harorati tashqari haroratdan 10 gradus issiq bo'lar ekan.

Botqoqliklarda kun ko'ruvchi qurbaqalar umri davomida uch mingta pashsha va chivin yer ekan.

Dunyodagi eng chuqur ko'l bu Baykal ko'li bo'lib, unga 336 daryo o'z suvini quyay ekan. Faqat birgina daryo undan suv olib chiqadi. Toza suv bo'yicha esa 1-o'rinda turadi.

Saudiya Arabistoni dunyoda daryosi mavjud bo'lmagan yagona davlat hisoblanadi va shuning uchun uning havosi quruq bo'lar ekan.

Eng qimmat qush haqida bilasizmi? Bu poygada qatnashadigan kabutar bo'lib, uning narxi 90,000 dollardan 1,4 mln dollargacha turar ekan. Bunday kabutarlarni poyga uchun xarid qilishadi.

Kulgi stress gor-monlarini pasaytirib, immun tizimini kuchaytirar ekan.

Dunyodagi eng qadimiy aloqa bo'limi Shotlandiyaning «Sanquer» shahrida joylashgan. 1712-yili ishga tushirilgan.

NARGIZA tayyorladi



Fillar mening do'stim

OZOD YURT FARZANDIMAN

*Yoshlik inson hayotining jo'shqin pallasi,
unutilmas lahzalaridir. Inson ruhiyatining sirli
mo'jizalaridan biri.*



Birinci do'st, birinci muhabbat, yodda qolarli birinchi xato, haqiqat va yolg'onni anglagan onlar, ota-onamizning mehri nigohi, ustozlarimizning go'zal tabassumi bularning barcha-barchasi yoshligimizning oltin sahifalaridir. Yoshlik davrida qilingan barcha xatti-harakat kelajakning oltin mevasiga aylanadi. Qachonki bu harakat ezgu amallar bilan boyitilsa.

Keling, men Sizga bir savol beray. Agarda sizga ikkinchi hayot, ikkinchi imkoniyat berilganda, siz

uni qabul qilarmidingiz? O'zgartirmoqchi bo'lgan ishlarining bormi? Ha yoki yo'q. Bu savolga 80 foiz insonlar «ha» degan javobni beradilar. Ammo men bunga «yo'q» degan bo'lar edim. Nega? Bunga to'rt sababni ayta olaman.

Birinchisi, men dunyodagi eng baxtli yoshlardan biriman. Chunki men ozod yurtning farzandiman.

Ikkinchisi, men hech qachon ortga qaytmayman. Chunki ortga qaytishga, afsuslanishga arzigulik xatoga yo'l qo'ymaslikka harakat qilaman.

Uchinchisi, siz ortingizga qaytishni xohlayapsizmi, demak, sizning yoshlikda orzu qilgan kasbingiz yoki orzu qilgan narsangiz bo'lgan. Men esa orzu qilish bilangina kifoyalanmayman. Aksincha, o'ylagan kasbim kelajagim uchun foydali bo'lsa, unga erishish uchun harakatni yoshlikdanoq boshlayman.

Va nihoyat, to'rtinchisi, ikkinchi imkon – bu Hayot! Siz doimo haqiqiy hayotda o'z o'ringiz bo'lishiga harakat qilishingiz kerak.

Ozod, tinch, osmoni musaffo yurtda voyaga yetayotgan biz – yosh avlodning kelajagi, albatta, porloq bo'lishiga ishonaman! Bunday yoshlardan biri Sizsiz, aziz tengdoshim!


Robiya DEHQONOVA,
Toshkent shahar Abdulla Qodiriy nomidagi
ijod maktabi o'quvchisi

Ona Vatani mavzusi Abdulla Oripovning eng otashin satrlarda qalanga olingan mavzudir. Shoir asarlarida uning vatanparvarligini kundik qoni tomgan zaminga sadoqatini, muhabbatini his etmaslikning iloji yo'q.

MENING IJOD MAKTABIM

Sevimli shoirimizning O'zbekiston Respublikasi Madhiyasi muallifi degan ulug'vor nomga sazovor bo'lishi ham ona Vatanga muhabbatini yana bir bor isbot etdi. Shu asnoda, adabiyotshunos olim, akademik Matyoqub Qo'shjonov «Abdulla Oripov Vatani kuychisi. U Vatanni borligicha, butun go'zalligi bilan birga ko'radi. Va xalqi ham uni shundayligicha sevadi», degan edi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan Abdulla Oripovning el-yurt oldidagi xizmatlarini hisobga olib, Qarshi shahrida Abdulla Oripov nomli ijod maktabi hamda shoir hayotiga doir muzey barpo etildi.



Men adabiyotga, she'riyatga mehirim tufayli ushbu maktabning faol o'quvchisi bo'lganligimdan juda ham g'ururlanam. Sababi, shunday buyuk shoir nomi berilgan ijod maskani menga yanada ilhom baxsh etadi. Go'zal satrlar bitishimga, she'riyatning sehri olamiga oshno bo'lishimda muhim o'rin tutadi. Yurtimizda biz yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanishga undaydi. Fursatdan foydalanib, respublikamizning barcha yoshlarini «Yoshlar kuni» bilan tabriklayman. Yurtimiz ravnaqi yo'lida birlashib, doimo faol bo'lishlarini tilayman.

Sevinch HAMROYEVA,
Qarshi shahridagi Abdulla Oripov
nomidagi ijod maktabi o'quvchisi

BU DAMLAR BETAKROR

**Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasining ijodiy xodimlari!
Ne-ne qalami o'tkir ijodkorlarni, iste'dodlarni kashf etishda gazetaning, xususan,
sizlarning o'z o'ringiz bor, albatta.**

Men she'riyatga qiziqaman, o'zim ham she'rlar mashq qilib turaman. Sevimli shoirimiz nomi bilan ataluvchi Muhammad Yusuf ijod maktabida tahsil olayotganimdan faxrlanam.

Yaqinda men Shahrixon tumanidagi «Neuron» o'quv markazi tomonidan o'tkazilgan «Biz birgalikda yengilmas kuchmiz» onlayn-tanlovida ishtirok etdim. Ijod namunalirim yuqori baholanib, «Oltin qalam sohibasi» nominatsiyasiga sazovor bo'ldim va diplom bilan taqdirlandim. She'riy mashqlarimdan respublikadagi tengdoshlarim ham bahramand bo'lishlarini, iste'dodimga baho berishlarini istayman. Shu maqsadda tahririyatga o'zim



yaxshi ko'rgan «Bolalik» nomli she'rimni yuboryapman.

*Bahor nafasini his etib yurak,
Maysazorda chopgim keladi.
Momoqaymoqlardan yasab chamberak,
Jamalak sochimga taqqim keladi.*

*Anhor suvlarini to'qinlantirib,
To'qinlarni mahkam quchgim keladi.
Yam-yashil yaproqdan varraklar yasab,
Baland-balandlarga uchgim keladi.*

*Qaniydi, bolalik abadiy bo'lsa,
Biroq vaqt bunga izn bermaydi.
Bu damlar betakror, ammo bu hayot,
Bolalikdan bir zum kechgim kelmaydi.*

Jasmina KOMILOVA,
Andijon shahri Muhammad Yusuf nomidagi
ijod maktabi o'quvchisi

BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70

Tong yulduzi

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruz AADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Dilshod KENJAYEV,
Alisher S'ADULLAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi - 4000
Buyurtma - V 4213

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08